

SHARQ AGIOGRAFIYASI RIVOJIDA SIYRA JANRINING AHAMIYATI

Sayidolimov Javohirbek Baxtiyorjon o‘g‘li
FarDU o‘qituvchisi

Diniy xarakterdagi hikoya va qissalarni qayta ishlab, to‘laqonli badiiy asar yaratish arab, turkiy va fors-tojik adabiyotlarida qadimdan mavjud edi. “Insoniyat tarixi iymon va kufr qutblari orasida quriladi va har bir xalq bu oqimga o‘zining Islomdan avvalgi avliyolarini ham kiritadi. Shu tariqa islom adabiyoti o‘zidan ilgarigi adabiyotlar bilan bog‘lanib, mushtarak adabiyot yuzaga keladi va asrlar osha turli milliy adabiyotlarga ta’sir etadi” [1. 3]. Sharq agiografiyasi haqida gap ketganda bu adabiyotning islomiy qadriyatlar ustiga qurilgani, bu jarayon avval arab, so‘ng fors-tojik va, undan keyin, turkiy xalqlar orasida rivojlanganligi bilan izohlanadi. Chunonchi “Injil”, “Tavrot” ,“Qur’on” kabi muqaddas diniy kitoblarning yuqori saviyada badiiy shakllangan asarlar ekanligi ilmda tasdiqlangan, ya’ni diniy adabiyotlarning o‘zi badiiylikdan holi emas” [2. 21]. Chunki Qur’onda ko‘plab xalqlarning o‘tmishi ixcham va ta’sirchan usulda bayon etilgan. Shu sababdan Sharq va keng ko‘lamda jahon adabiyoti tarkibida turkiy (o‘zbek) adabiyoti ham Qur’oni aslar davomida turlicha o‘zlashtirgan va uning mavzulari asosida, zamon talabidan kelib chiqqan holda, ko‘plab asarlar yaratilgan. Sharq agiografiyasining durdonalarini yaratgan ijodkorlar, qay millat vakili bo‘lishidan qat’iy nazar, Odam alayhissalom farzandi ekanliklarini e’tirof etgan holda, umumbashariy qarashlarni bayon etganlar. Bu narsa adabiyotlararo mushtaraklikni vujudga keltirgan holda, G‘arb adabiyotiga ham ta’sir o‘tkazgan. Bunday jarayonda turli xil afsonalarning siljishi jahon adabiy oqimida o‘xhash xususiyatlarni yuzaga keltirgan, aynan shu sababli turli milliy adabiyotlarga mansub namunalar bir butun hodisa sifatida qaraladi. Masalan, qaysidir qalam sohibi Yusuf alayhissalomga sof oshiq obrazi sifatida qarasa, boshqa ijodkor payg‘ambar, yana qaysidir adib esa hukmdor sifatida o‘z asarini yaratadi. Misol uchun “Hamza Hakimzoda Niyoziy “Qiroat” kitobida bu qissani sodda til bilan qisqacha hikoya qilgan, Nozim Hikmat “Go‘zal Yusuf” pyesasini, Ramz Bobojon “Yusuf va Zulayxo” musiqali dramasini yaratgan.” [3. 590] Bu asarlarda bir obrazga ijodkorning ijodiy niyati, ijtimoiy omillar va davr talabidan kelib chiqqan holda, turlicha yondashilgan. “Konkret badiiy asar mazmuniga ta’sir etuvchi muhim omillardan biri ijodkorning dunyoqarashidir. Inson voqelikni, unda yuz berayotgan hodisalarni o‘zining dunyoqarashi bilan bog‘liq holda ko‘radi. Shunga ko‘ra biz “real voqelik” deb atayotgan narsa turli individlar ongida turlicha akslanadi va turlicha baholanadi” Bunda badiiylikni, g‘oyaviy jihatlarni ta’milagan narsa muallifning ijodiy yondashuvi hisoblanadi. Bunday ijodiy yondashuv zamirida ham ma’lum bir maqsad yotadi. Muallif tomonidan badiiylikning muhim sharti hisoblangan shakl va mazmunning uyg‘un holda berilishi mazkur turdagи manbalarning ta’sir kuchini yanada oshiradi. Agiografik asarlar bevosita e’tiqodiy qarashlar bilan bog‘liq bo‘lgani uchun, kitobxon ta’sirlanmas ekan, uning e’tiqodiy qarashlarida o‘zgarishlar bo‘lmaydi. Bunday jarayonda agiografik adabiyot o‘zining funksiyasiga yo‘naltirilgan mazmun-mohiyatini yo‘qotadi. “Bu esa o‘quvchini estetik subyektga aylantiradi, uni estetik obyektni qayta yaratishga undaydi.

Ya’ni o‘qish – ijodiy jarayon, chunki o‘quvchi yozuvchi yetkazayotgan mazmunning oddiy iste’molchisi emas, u belgilar asosida badiiy vogelikni qayta yaratayotgan ijodkor” [4. 54-55]. O‘quvchiga estetik zavq bera oladigan asarni yaratish uchun adabiyotshunos B.Karimov ta’kidlaganiday: “Ijod maydonida Hazrati Ayub alayhissalomning sabri kerak odamga” [5. 4].

Musulmon agiografiyasining rivojlanishi bevosita “siyra” janri bilan boshlangan bo‘lib, keyingi davrlarda boshqa janr va shakllarda ham yaratilgan. “Siyra (arab. – hayot yo‘li, tarjimai hol) – Muhammad (s.a.v) hayot yo‘lini bayon qilishga bag‘ishlangan, ilk islom davridan keyin vujudga kelgan diniy-tarixiy asarlarning umumiy nomi. Dastlab siyralar ko‘p bo‘lgan, ularning anchasi yo‘qolib ketgan.” [3. 418]. Keyingi davrlarga kelib siyra janridagi asarlarning kam yaratilishi, hatto unutilishiga sabab shuki, bu turdagи asarlarda Muhammad alayhissalomning hayoti va faoliyatini yoritishda harbiy yurishlarga e’tibor qaratilganligidadir. Islom dini keng hududlarga tarqalgandan so‘ng uning mohiyatini ochib berishga alohida e’tibor qaratilgan. 747-823-yillarda yashab o‘tgan Voqidiy o‘zining “Kitob al-mag‘oziy” (“Harbiy yurishlar kitobi”) asarida o‘zigacha bo‘lgan davrdagi siyralarni umumlashtirgan. Shunday bo‘lsa-da, Ibn Ishoq va Ibn Hishomlarning “Siyrat Rasulillah” (“Alloh elchisining hayot yo‘li”) bugungi kungacha saqlanib qolning eng mukammal asar hisoblanadi. Muhammad ibn Sa’d qalamiga mansub “At-tabaqot al-kubro” asari ham shu yo‘nalishda yaratilgan asarlar qatoriga kiradi. Muhammad ibn Sa’d Voqidiyning shogirdi bo‘lgani uchun uning asari ham anchayin mashhur bo‘lgan. “At-tabaqot al-kubro” asarida Muhammad alayhissalom faoliyati bilan bir qatorda, ilk islom davridagi uch tabaqa sahabalar, tobeinlar va taba tobeinlar hayoti kengroq yoritilgan. Keyinchalik mazkur turdagи asarlar ko‘payishi natijasida taboqot janri anchayin keng rivojlangan. Siyra janridagi asarlar “Shamoyil”ning rivojlanishi uchun turtki vazifasini bajargan.

ADABIYOTLAR:

1. Кароматов X. Хўрланган пайғамбарлар ғалабаси. – Тошкент. Адабиёт ва санъат нашриёти, 1998.
2. Назаров Б. Ислом агиографияси тизимида мақомотнинг ўрни ва унинг бадиий -услубий хусусиятлари (Баҳоуддин Нақшбанд мақомотлари асосида). Ф.ф.д. диссертацияси. – Тошкент. 2000.
3. Ислом энциклопедияси. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2017.
4. Куронов Д. Мамажонов З. ва бошқалар. Адбиётшунослик луғати. – Тошкент: Академнашр. 2013. – Б.б. 54-55.
5. Баҳодир Карим. Руҳият алифбоси. – Тошкент: Faafur Fулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи. 2018.
6. Sayidolimov, J. B. O. G. L. (2023). AGIOGRAFIK OBRAZLARNING MAZMUN-MOHIYATIDAGI EVRILISHLAR. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 3(3), 1318-1322

REFERENS:

18. Jo‘rayev, H. A., & qizi Maxamadjonova, S. R. (2022). SHEKSPIR TRAGEDIYALARIDA AFORIZMLAR. INTERNATIONAL CONFERENCE ON LEARNING AND TEACHING, 1(7), 452-454.
19. Dehqonova, Maxsuma, & Qosimov, Iqboljon (2022). OYBEK DOSTONLARIDA MAVZULAR XILMA-XILLIGI VA OBRAZLAR TASVIRI. International scientific journal of Biruni, 1 (2), 317-322.
20. Dehkonovalova, M. S. (2020). OYBEK’S POETRY THROUGH ANALYSES OF REPRESENTATIVES OF OYBEK STUDIES SCHOOL. Theoretical & Applied Science, (2), 13-17.
21. Axronkulovna, J. M. (2018). Feelings of Artistic Expressions and Admittances. ANGLISTICUM. Journal of the Association-Institute for English Language and American Studies, 7(6), 80-83.
22. Axronkulovna, J. M. (2018). Feelings of Artistic Expressions and Admittances. ANGLISTICUM. Journal of the Association-Institute for English Language and American Studies, 7(6), 80-83.
23. Jurayeva, M. KESIM VAZIFASIDAGI UNSURLARNING KVALIFIKATIV SINTAKSEMALARGA AJRATIB TAHLIL QILISH. Проблеми та перспективи розвитку науки на початку третього тисячоліття у країнах Європи та Азії, 116.
24. Inomov, S. (2022). UBAYDIY-RUBOYNAVIS. OLIY VA O ‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI FARG ‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI, 466.
25. Жўраев, Ҳ., & Қосимов, А. (2022). 16. Хамидов Миролимбек Мансур ўғли, Сабирдинов АкбарFaфурович, Ҳ. Жўраев, Орипова Гулноза Муродиловна, & САХўжаев.(2022, May 1)." ҚАЙФУ ГУЛИ" ЁХУД ИЖОДКОР СИЙРАТИГА САЙР. <https://doi.org/10.5281/zenodo.6523688>. OLIY VA O ‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI FARG ‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI, 435.
26. Jo‘rayev, H. A., & qizi Maxamadjonova, S. R. (2022). SHEKSPIR TRAGEDIYALARIDA AFORIZMLAR. INTERNATIONAL CONFERENCE ON LEARNING AND TEACHING, 1(7), 452-454.
27. Dehqonova, Maxsuma, & Qosimov, Iqboljon (2022). OYBEK DOSTONLARIDA MAVZULAR XILMA-XILLIGI VA OBRAZLAR TASVIRI. International scientific journal of Biruni, 1 (2), 317-322.
28. Dehkonovalova, M. S. (2020). OYBEK’S POETRY THROUGH ANALYSES OF REPRESENTATIVES OF OYBEK STUDIES SCHOOL. Theoretical & Applied Science, (2), 13-17.
29. Fayzullajon o‘g‘li, T. O. (2022). “SHAVQI GULISTON” ASARI MATNINING TUZILISHI. BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMIY JURNALI, 2(10), 192-195.
30. Fayzullajon o‘g‘li, T. O. (2023). “GULISTON” DAGI “FE’L MASDARI+ GEREFTAN” MODELLI FE’L SHAKLLARI BORASIDAGI NAZARIY QARASHLAR. THEORY AND ANALYTICAL ASPECTS OF RECENT RESEARCH, 2(16), 149-152.

31. Fayzullajon o‘g‘li, T. O. (2023). «(BE) PREFIKSI+ ISM+ YORDAMCHI FE’L MODELIDAGI QO ‘SHMA FE’LLAR XUSUSIDA. Новости образования: исследование в XXI веке, 1(11), 382-386.
32. Odiljon o‘g‘li, U. D. (2023). ADABIYOTSHUNOSLIKDA ADABIY TANQIDIY MAQOLALARING AHAMIYATI.
33. Odiljon o‘g‘li, U. D. (2023). ADABIY ASAR QAHRAMONI TALQINIDAGI O ‘ZIGA XOSLIKlar. *IQRO*, 2(2), 777-785.